

DAVLAT MOLİYAVIY SIYOSATI VA XALQARO DONORLAR MABLAG‘LARINING IJTIMOIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Dadamirzayev Diyorbek Zafar o‘g‘li

Bank-Moliya akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20953003>

Annotatsiya. Maqolada davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rni va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi donorlarning ushbu jarayonga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining 2025–2026-yillardagi budjet siyosati, ijtimoiy soha moliyalashtirilishi va xalqaro donorlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar misolida davlat moliyasi va tashqi yordam o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganiladi. Tadqiqotda donor mablag‘laridan foydalanishning ijobiy natijalari bilan birga, tashqi qarz barqarorligi va milliy ustuvorliklarning donor talablari bilan muvofiqlashtirilishi kabi xavf-xatarlar ham ko‘rib chiqiladi. Maqola yakunida ichki moliyaviy resurslarni safarbar etish, dasturiy budjetlashtirish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga asoslangan istiqbol yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy siyosati, ijtimoiy rivojlanish, xalqaro donorlar, davlat budjeti, rasmiy rivojlanish yordami, tashqi qarz barqarorligi, dasturiy budjetlashtirish, davlat-xususiy sheriklik.

Kirish

Zamonaviy davlat boshqaruvi sharoitida ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash davlat moliyaviy siyosatining markaziy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va aholi turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari nafaqat ichki budjet imkoniyatlariga, balki xalqaro moliya-kredit institutlari — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentliklari va boshqa donor tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag‘larga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan tub islohotlar xalqaro donorlar bilan hamkorlikning kengayishiga, shu bilan birga davlat moliyasi va tashqi yordam o‘rtasidagi munosabatlarning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishiga olib keldi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bir tomondan xalqaro donor mablag‘lari ijtimoiy sohani isloh qilish, institutsional salohiyatni mustahkamlash va aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha moliyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi; ikkinchi tomondan, bu mablag‘lardan oqilona va samarali foydalanish, tashqi qarz barqarorligini saqlash hamda donor talablarini milliy ustuvor vazifalar bilan muvofiqlashtirish masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi — davlat moliyaviy siyosati va xalqaro donor mablag‘larining ijtimoiy rivojlanishga ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish, ularning afzalliklari va xavf-xatarlarini aniqlash hamda kelgusi istiqbol yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

1.1. Davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy rivojlanishdagi nazariy-konseptual asoslari

Davlat moliyaviy siyosati — davlat budjeti, soliq tizimi va budjetdan tashqari jamg‘armalar orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Klassik moliya nazariyasida R. Musgrave davlat moliyasining uch asosiy vazifasini — resurslarni taqsimlash (allocation), daromadlarni qayta taqsimlash (redistribution) va makroiqtisodiy

barqarorlikni ta'minlash (stabilization) — ajratib ko'rsatgan edi¹. Ushbu vazifalardan ikkinchisi, ya'ni daromadlarni qayta taqsimlash funksiyasi bevosita ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lib, u davlat budjeti orqali ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalariga yo'naltiriladigan xarajatlarda namoyon bo'ladi. J. Stiglits ham davlat sektori iqtisodiyotida budget xarajatlarining ijtimoiy adolat va inson kapitalini rivojlantirish vazifalarini bajarishini alohida ta'kidlagan².

Ijtimoiy yo'naltirilgan moliyaviy siyosat, odatda, soliq-budget instrumentlari (transfertlar, subsidiyalar, ijtimoiy dasturlar moliyalashtirilishi) va institutsional mexanizmlar (dasturiy budgetlashtirish, natijaga asoslangan moliyalashtirish) orqali amalga oshiriladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, jumladan O'zbekistonda, ichki budget resurslarining cheklanganligi xalqaro donor tashkilotlar bilan hamkorlikni ijtimoiy sohani moliyalashtirishning muhim qo'shimcha manbaiga aylantirmoqda³.

1.2. Xalqaro donor tashkilotlarning O'zbekiston ijtimoiy sohasiga yo'naltirilgan loyihalari tahlili

O'zbekistonning Jahon banki bilan hamkorligi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Mamlakat bilan sheriklik strategiyasi (Country Partnership Framework) doirasida amalga oshirilib, u xususiy sektorda bandlikni oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va “yashil” o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan⁴. Ushbu hamkorlik natijasida 2024–2025-yillarda qashshoqlik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, Jini koeffitsienti esa 34,6 dan 32,7 ga qisqargani qayd etilgan⁵.

2025-yil oktyabr oyida Jahon banki Boshqaruvchilar Kengashi O'zbekistonga ish o'rinlari yaratish, xususiy sektor o'sishi va xalqaro savdoni rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun 800 million AQSH dollari miqdorida yengillashtirilgan kreditlar paketini ma'qulladi; ushbu mablag'lar, jumladan, kam ta'minlangan oilalar uchun energiya tariflari oshishi oqibatlarini yumshatish va ijtimoiy himoya xizmatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan⁶. 2025-yil dekabr oyida esa kichik va o'rta tadbirkorlikni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 100 million dollarlik kredit va 5 million dollarlik grant (FINGROW loyihasi)⁷, shuningdek, 16 tuman va shahardagi ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini yaxshilashga mo'ljallangan 250 million dollarlik “Yashash uchun qulay va istiqbolli shaharlar” dasturi (LPCP) tasdiqlangan; ushbu dastur 2030-yilga qadar qariyb 1 million aholi turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi⁸.

¹Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959. – P. 5–9.

²Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. 3rd ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2000. – P. 12–18.

³Wodon Q., Moreno-Dodson B. (eds.) Public Finance for Poverty Reduction: Concepts and Case Studies from Africa and Latin America. – Washington, D.C.: World Bank, 2008. – P. 3–7.

⁴World Bank Group. Uzbekistan: Country Overview // worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan (murojaat sanasi: 25.06.2026).

⁵World Bank Group. Uzbekistan: Country Overview // worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan (murojaat sanasi: 25.06.2026).

⁶World Bank. First Advancing Global Integration and Market Transition – Uzbekistan Programmatic Development Policy Operation: Press Release, 16.10.2025 // worldbank.org.

⁷World Bank. Improved Access to Finance to Help 7,000 Businesses in Uzbekistan Grow and Create Jobs: Press Release, 15.12.2025 // worldbank.org.

⁸World Bank. Upgraded Municipal Infrastructure to Enhance Quality of Life for 1 Million People Across Uzbekistan: Press Release, 15.12.2025 // worldbank.org.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik 1995-yildan boshlab davom etib, hozirga qadar O‘zbekistonga jami 14,7 milliard AQSH dollaridan ortiq kredit, grant va texnik yordam mablag‘lari ajratilgan, joriy portfel hajmi esa 4,23 milliard dollarni tashkil etadi⁹. 2025-yil oktyabrda OTB davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan 500 million dollarlik dastur doirasida ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash va islohotlarning zaif qatlamlarga ta’sirini yumshatish choralari ham qo‘llab-quvvatladi¹⁰. Shu bilan birga, 2025-yil noyabrda mikro-, kichik va o‘rta tadbirkorlikni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun 300 million dollarlik kredit ajratilgan, undan 100 million dollari yengillashtirilgan shartlarda berilgan¹¹.

2026-yilning may oyida O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo‘lib Yangi Taraqqiyot Bankiga (NDB) a‘zo bo‘ldi, bu esa infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish manbalarini yanada diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda¹².

1.3. Davlat budjetining ijtimoiy yo‘nalganligi: O‘zbekiston tajribasi

Davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy yo‘nalganligi, eng avvalo, davlat budjeti xarajatlarining tarkibida namoyon bo‘ladi. 2026-yilga mo‘ljallangan davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasiga ko‘ra, ijtimoiy soha uchun 220 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi, bu esa umumiy budjet xarajatlarining deyarli 55 foizini tashkil etishi belgilangan; jumladan, xarajatlarning 25,5 foizi ta’lim va fan sohasiga, 12,1 foizi sog‘liqni saqlashga, 4,2 foizi esa aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltiriladi¹³. Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 515,4 trillion so‘m, xarajatlari esa 567 trillion so‘m miqdorida prognoz qilinib, budjet taqchilligining yuqori chegarasi yalpi ichki mahsulotning 3 foizi (taxminan 59,9 trillion so‘m) bilan cheklab qo‘yilgan¹⁴.

Bu ko‘rsatkichlar davlat budjet siyosatining ijtimoiy sohani ustuvor moliyalashtirish yo‘nalishida shakllanayotganini, shu bilan birga budjet taqchilligi va tashqi qarz hajmini nazorat qilishga qaratilgan ehtiyotkor fiskal yondashuvni saqlab qolinayotganini ko‘rsatadi.

1.4. Donor mablag‘laridan foydalanishning samaradorligi va xavf-xatarlari

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, tashqi yordamning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ko‘p jihatdan qabul qiluvchi davlatning institutsional sifati va iqtisodiy siyosatiga bog‘liq. K. Bernsayd va D. Dollar o‘tkazgan tadqiqotda ta’kidlanishicha, tashqi yordam faqat sog‘lom makroiqtisodiy siyosat olib boriladigan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, aks holda uning samarasi cheklanib qoladi¹⁵. V. Isterli esa o‘z tadqiqotlarida yordam dasturlarining samarasizligiga olib keladigan omillar — yetarli monitoring va hisobdorlik

⁹Asian Development Bank. Uzbekistan and ADB: Country Page // adb.org/where-we-work/uzbekistan (murojaat sanasi: 25.06.2026).

¹⁰Asian Development Bank. ADB Supports Uzbekistan's Economic Transformation and Global Trade Integration: News Release, 15.10.2025. – Manila: ADB, 2025.

¹¹Asian Development Bank to provide \$300 mln to Uzbekistan to expand access to finance for small businesses // Interfax. – 2025. – 12 November.

¹²Uzbekistan NDB Membership 2026: First Central Asian Country Joins New Development Bank // matbuot ma’lumotlari, 2026-yil may.

¹³“2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘RQ-1105-son, 25.12.2025 // lex.uz.

¹⁴Deputatlar davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ma’qulladi // Gazeta.uz. – 2025. – 3-dekabr.

¹⁵Burnside C., Dollar D. Aid, Policies, and Growth // *American Economic Review*. – 2000. – Vol. 90, № 4. – P. 847–868.

tizimining yo‘qligi, donor talablari bilan mahalliy ehtiyojlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik kabi jihatlarni tanqidiy tahlil qilgan¹⁶. Jahon banki tomonidan nashr etilgan to‘plamda ham davlat moliyasi instrumentlarining qashshoqlikni qisqartirishdagi samarasi, eng avvalo, xarajatlarning maqsadli yo‘naltirilishi va boshqaruv sifatiga bog‘liqligi alohida ta’kidlangan¹⁷.

O‘zbekiston misolida xalqaro donorlar bilan hamkorlikning asosiy afzalliklari quyidagilarda ko‘rinadi: birinchidan, yengillashtirilgan shartlardagi kreditlar davlat budjetiga nisbatan arzonroq moliyaviy resurslarni jalb etish imkonini beradi¹⁸; ikkinchidan, donor loyihalari, odatda, institutsional islohotlar (davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish kabi) bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi¹⁹; uchinchidan, texnik yordam va bilim almashinuvi orqali milliy kadrlar salohiyati oshiriladi.

Shu bilan birga, bir qator xavf-xatarlar ham mavjud. Eng avvalo, tashqi qarz hajmining o‘shishi davlat moliyasi barqarorligiga tahdid solishi mumkin; shu sababli 2026-yilga belgilangan yangi tashqi qarz chegarasi 5 milliard AQSH dollari miqdorida saqlanib qolinmoqda (2025-yilda bu ko‘rsatkich 5,5 milliard dollarni tashkil etgan edi)²⁰. Ikkinchidan, donor talablari va shartlari milliy ustuvor yo‘nalishlar bilan to‘liq mos kelmasligi mumkin, bu esa loyihalarni moslashtirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha institutsional sarf-xarajatlarni talab qiladi. Uchinchidan, ko‘plab kichik loyihalarning parallel amalga oshirilishi davlat organlarining ma’muriy yukini oshirib, monitoring va baholash tizimiga bosimni kuchaytiradi.

Istiqbol yo‘nalishlari

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi istiqbol yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ichki moliyaviy resurslarni safarbar etishni kuchaytirish, jumladan, soliq bazasini kengaytirish va “yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish hisobidan budjet daromadlarini barqarorlashtirish;
- dasturiy budjetlashtirish tizimini yanada rivojlantirish, bunda budjet mablag‘lari aniq natija ko‘rsatkichlariga bog‘lab ajratiladi; bu yondashuv Jahon bankining infratuzilma dasturlarida natijaga asoslangan moliyalashtirish modeli sifatida allaqachon qo‘llanilmoqda;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ijtimoiy soha obyektlarida (ta’lim, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi) kengroq joriy etish;
- donor tashkilotlar bilan hamkorlikni diversifikatsiya qilish, jumladan, Yangi Taraqqiyot Bankiga a’zo bo‘lish kabi qadamlar orqali moliyalashtirish manbalarini kengaytirish;
- budjet mablag‘laridan, jumladan donor kreditlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini mustahkamlash.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy siyosati va xalqaro donor mablag‘lari O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanishni moliyalashtirishning bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim

¹⁶Easterly W. The White Man's Burden: Why the West's Efforts to Aid the Rest Have Done So Much Ill and So Little Good. – New York: Penguin Press, 2006. – P. 21–34.

¹⁷Wodon Q., Moreno-Dodson B. (eds.) Public Finance for Poverty Reduction: Concepts and Case Studies from Africa and Latin America. – Washington, D.C.: World Bank, 2008. – P. 45–52.

¹⁸World Bank. First Advancing Global Integration and Market Transition – Uzbekistan Programmatic Development Policy Operation: Press Release, 16.10.2025 // worldbank.org.

¹⁹Asian Development Bank. ADB Supports Uzbekistan's Economic Transformation and Global Trade Integration: News Release, 15.10.2025 // adb.org.

²⁰Deputatlar davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ma’qulladi // Gazeta.uz. – 2025. – 3-dekabr.

manbaiga aylangan. Davlat budjetining ijtimoiy sohaga ustuvor yoʻnaltirilishi (xarajatlarning qariyb 55 foizi) milliy ijtimoiy siyosatning asosiy yoʻnalishini belgilab bersa, xalqaro moliya institutlari — Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi donorlarning loyihalari ushbu yoʻnalishni institutsional islohotlar va qoʻshimcha moliyaviy resurslar bilan mustahkamlamoqda. Ayni paytda, tashqi qarz barqarorligini saqlash, donor talablarini milliy ustuvorliklar bilan muvofiqlashtirish va mablagʻlardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari kelgusi davr uchun dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ichki resurslarni safarbar etish, dasturiy budjetlashtirish va davlat-xususiy sheriklikka asoslangan kompleks yondashuv ijtimoiy rivojlanishning barqaror moliyaviy negizini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Burnside C., Dollar D. Aid, Policies, and Growth // American Economic Review. – 2000. – Vol. 90, № 4. – P. 847–868.
2. Easterly W. The White Man's Burden: Why the West's Efforts to Aid the Rest Have Done So Much Ill and So Little Good. – New York: Penguin Press, 2006. – 436 p.
3. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 628 p.
4. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. 3rd ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2000. – 823 p.
5. Wodon Q., Moreno-Dodson B. (eds.) Public Finance for Poverty Reduction: Concepts and Case Studies from Africa and Latin America. – Washington, D.C.: World Bank, 2008. – 558 p.
6. Asian Development Bank. ADB Approves \$250 Million Loan to Support Uzbekistan's Green, Inclusive, and Resilient Economic Growth: News Release, 19.11.2024. – Manila: ADB, 2024 // adb.org.
7. Asian Development Bank. ADB Supports Uzbekistan's Economic Transformation and Global Trade Integration: News Release, 15.10.2025. – Manila: ADB, 2025 // adb.org.
8. Asian Development Bank. Uzbekistan and ADB: Country Page // adb.org/where-we-work/uzbekistan (murojaat sanasi: 25.06.2026).
9. Asian Development Bank to provide \$300 mln to Uzbekistan to expand access to finance for small businesses // Interfax. – 2025. – 12 November.
10. World Bank. First Advancing Global Integration and Market Transition – Uzbekistan Programmatic Development Policy Operation: Press Release, 16.10.2025. – Washington, D.C.: World Bank, 2025 // worldbank.org.
11. World Bank. Improved Access to Finance to Help 7,000 Businesses in Uzbekistan Grow and Create Jobs: Press Release, 15.12.2025. – Washington, D.C.: World Bank, 2025 // worldbank.org.
12. World Bank. Upgraded Municipal Infrastructure to Enhance Quality of Life for 1 Million People Across Uzbekistan: Press Release, 15.12.2025. – Washington, D.C.: World Bank, 2025 // worldbank.org.
13. World Bank Group. Uzbekistan: Country Overview // worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan (murojaat sanasi: 25.06.2026).
14. “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, OʻRQ-1105-son, 25.12.2025 // lex.uz.
15. Deputatlar davlat budjeti toʻgʻrisidagi qonun loyihasini birinchi oʻqishda maʼqulladi // Gazeta.uz. – 2025. – 3-dekabr.
16. Uzbekistan NDB Membership 2026: First Central Asian Country Joins New Development Bank // matbuot.ma'lumotlari, 2026-yil may.

